

Andijon viloyatining Demografik holati

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 629-son qaroriga muvofiq, **aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning yakuniy natijalari 2027-yil 1-iyulga qadar** tayyorlanishi belgilangan.

Ro'yxatga olishning yakuniy natijalari rasmiy e'lon qilinganidan so'ng doimiy aholi soni belgilangan tartibda, ro'yxatga olish natijalari asosida e'lon qilinadi. Shu munosabat bilan **2026-yil 1-iyul holatiga demografik ko'rsatkichlar** Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining ma'lumotlar integratsiyasi bo'yicha shakllantirildi.

- I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar
- II. Doimiy aholi soni
- III. Tug'ilganlar va vafot etganlar
- IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar
- V. Aholi migratsiyasi
- VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

I. Asosiy demografik ko'rsatkichlar

2026 yilning 1-iyul holatiga Andijon viloyatidagi doimiy aholisi soni **3 545,4** ming kishini tashkil etib, 2025 yilning mos davriga nisbatan **1,6** foizga ko'paygan. 2026 yil yanvar-iyun oylarida tug'ilganlar soni **33,0** ming nafarni, vafot etganlar **8,1** ming nafarni tashkil etib, tabiiy o'sish **24,9** ming kishiga teng bo'ldi. Viloyatimizga jami ko'chib kelganlar soni **7,2** ming kishini va ko'chib ketganlar soni **8,5** ming kishini qayd etilgan, nikohlar **7,7** mingtani, nikohdan ajralishlar **2,5** mingtani tashkil etgan.

Doimiy aholi soni	3 545,4	ming kishi
Tug'ilganlar soni	33,0	ming kishi
Vafot etganlar soni	8,1	ming kishi
Ko'chib kelganlar	7,2	kishi
Ko'chib ketganlar	8,5	kishi
Nikohlar soni	7,7	ming birlik
Nikohdan ajralishlar soni	2,5	ming birlik


Andijon viloyatida doimiy aholi soni 2026 yil 1-iyul holatiga ko'ra **3 545,4** ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **57,5** ming kishiga yoki **1,6** foizga ko'paydi. Doimiy yashash hududi bo'yicha shahar joylarda **1 851,5** ming kishi (jami aholi soniga nisbatan **52,2** %), qishloq joylarda esa **1 693,9** ming kishi (**47,8** %) istiqomat qilmoqda. Ayollar soni **1 749,3** ming kishini (**49,3** %), erkaklar esa **1 796,1** ming kishini (**50,7** %), tashkil etmoqda.

Doimiy aholi soni, ming kishi
(1-iyul holatiga, ming kishi)

	2025-yil	2026-yil	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	3 487,9	3 545,4	101,6
Andijon sh.	497,6	508,3	102,2
Xonobod sh.	46,8	47,2	100,9
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	195,3	197,3	101,0
Andijon	295,6	301,3	101,9
Baliqchi	221,8	225,5	101,7
Bo'ston	80,3	81,9	102,0
Buloqboshi	157,0	159,4	101,5
Jalaquduq	203,5	206,2	101,3
Izboskan	262,1	266,5	101,7
Ulug'nor	64,4	65,0	100,9
Qo'rg'ontepa	236,1	239,6	101,5
Asaka	364,8	370,8	101,6
Marhamat	191,3	194,4	101,6
Shahrixon	333,8	339,2	101,6
Paxtaobod	214,1	217,3	101,5
Xo'jaobod	123,4	125,5	101,7

Andijon viloyatida 2026 yil 1-iyul holatiga ko'ra 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **824,1** kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025 yil 1-iyul holatiga ushbu ko'rsatkich **810,7** kishini, 2021 yilda esa ushbu ko'rsatkich **747,8** kishini tashkil etgan.

Aholi zichligi, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni




III. Tug'ilganlar va vafot etganlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan tirik tug'ilganlar soni **33,0** ming kishini, har ming aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **18,8** promilleni tashkil etdi. Tug'ilganlar soni 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **2,9** ming nafarga kamaygan.

Vafot etganlar soni **8,1** ming kishini, har ming aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etdi. Vafot etganlar soni 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan bir hil bo'lgan.


Tug'ilganlar va vafot etganlar soni, ming kishi



Viloyatimizda tirik tug'ilganlar soni **33,0** ming kishini, shundan o'g'il bolalar soni **17,0** ming kishini (jami tug'ilganlar soniga nisbatan **51,5%**), qiz bolalar soni **16,0** ming kishini (**48,5%**) va shahar joylarida **17,9** ming kishini (**54,2%**), qishloq joylarida **15,1** ming kishini (**45,8%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda vafot etganlar soni **8,1** ming kishini, shundan erkaklar **4,5** ming kishini (jami vafot etganlar soniga nisbatan **55,6%**), ayollar **3,6** ming kishini (**44,4%**) va shahar joylarida **4,5** ming kishini (**55,6%**), qishloq joylarida **3,6** ming kishini (**44,4%**) tashkil qildi.


Tug'ilganlar va vafot etganlarning jinslar bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi



IV. Nikohlar va nikohdan ajralishlar

Viloyatimizda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan nikohlar soni **7,7** ming birlik, har ming aholiga nikoh koeffitsiyenti **4,4** promilleni tashkil etdi. Nikohlar soni 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.


Nikohdan ajralishlar soni **2,5** ming birlik, har ming aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etdi. Ajralishlar soni 2025-yilning yanvar-iyun oylarida 2025-yilning mos davriga nisbatan **0,1** ming birlikka ko'paygan.



Viloyatimizda qayd etilgan nikohlar soni **7,7** ming birlikni, shundan shahar joylarida **4,1** ming birlikni (**53,2%**), qishloq joylarida **3,6** ming birlikni (**46,8%**) tashkil etdi.

Viloyatimizda nikohdan ajralishlar soni **2,5** ming birlikni, shundan shahar joylarida **1,4** ming birlikni (**56,0%**), qishloq joylarida **1,1** ming birlikni (**44,0%**) tashkil qildi.

Qayd etilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarning shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi, ming birlik



V. Aholi migratsiyasi


2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatimiz bo'yicha ko'chib kelganlar jami soni **7 180** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko'chib kelganlar **7 169** kishini tashkil etgan, xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar **11** kishini tashkil qiladi.

Ko'chib ketganlar jami soni **8 534** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko'chib ketganlar **8 507** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlar **27** kishini tashkil qildi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi

	Ko'chib kelganlar soni			Ko'chib ketganlar soni		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		ichki	tashqi		ichki	tashqi
Andijon viloyati	7 180	7169	11	8 534	8 507	27
Andijon sh.	1731	1729	2	1882	1878	4
Xonobod sh.	239	239		214	212	2
tumanlar:						
Oltinko'l	487	487		475	472	3
Andijon	1318	1318		1018	1014	4
Baliqchi	228	228		359	359	
Bo'ston	166	166		192	192	
Buloqboshi	156	155	1	349	349	
Jalaquduq	260	256	4	550	549	1
Izboskan	344	344		466	463	3
Ulug'nor	123	123		145	143	2
Qo'rg'ontepa	448	448		536	536	
Asaka	438	434	4	455	455	
Marhamat	169	169		351	346	5
Shahrixon	260	260		854	853	1
Paxtaobod	240	240		390	390	
Xo'jaobod	573	573		298	296	2

Jinslar bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



VI. Demografik ko'rsatkichlarning uslubiy tushuntirishlari va metama'lumotlari

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida ma'lumotlar elektron almashinuvi bo'yicha ushbu vazirliklarning birlamchi ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilingan.

Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun zarur bo'ladigan barcha zaruriy ma'lumotlar integratsiya orqali elektron shaklda olinishi sababli, alohida statistika kuzatuv shakli tasdiqlanmagan.

Demografik ko'rsatkichlarni tavsiflovchi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, statistika organlari tomonidan boshqa davlat organlari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi)dan olingan aholining tabiiy harakati va aholi migratsiyasi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar qayta ishlanadi.

Demografik ko'rsatkichlar bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqasi;
- ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqasi ma'lumotlari.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/814-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirishda-fugarolik-holati-dalolatnomalari-va-statistik-hisob-talonlari-ma-lumotnomalarini-kodlashtirish-bo-yicha-qo-llanma>

<https://lib.stat.uz/uz/features/demografiya-va-mehnat/853-asosiy-demografik-ko-rsatkichlarni-shakllantirish-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
A. Saidmaxmudov
74 228-80-00 (6070)

Manzil:
